

TOHIR MALIK ASARLARIDA QO‘LLANGAN O‘LCHOV SEMALI O‘XSHATISHLAR TAHLILI (qissalari misolida)

Turakulova Umidaxon Anvarovna,
Namangan davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi.

Gmail: standoffabu202@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Tohir Malik qissalarida qo‘llangan o‘lchov semali o‘xshatishlarning leksik-semantik va lingvokulturologik xususiyatlari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *o‘xshatish, etalon, asos, lingvokulturologik birlik, erkin o‘xshatish, o‘lchov.*

АНАЛИЗ СРАВНЕНИЙ С СЕМАНТИКОЙ МЕРЫ И СТЕПЕНИ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ТАХИРА МАЛИКА (на примере повестей)

Туракулова Умидахон Анваровна,
свободный соискатель,
Наманганский государственный университет

Gmail: standoffabu202@gmail.com

Аннотация. *В статье анализируются лексико-семантические и лингвокультурологические свойства сравнений с семантикой меры и степени, использованные в повестях Тахира Малика.*

Ключевые слова: *сравнение, эталон, основа, лингвокультурологическое единство, свободное сравнение, мера и степень.*

ANALYSIS OF METRICAL SIMILES USED IN TOHIR MALIK'S WORKS (based on his stories)

Turakulova Umidakhan Anvarovna,
Independent researcher of Namangan State University.

Gmail: standoffabu202@gmail.com

Annotation. *This article analyzes the lexical-semantic and linguocultural features of metrical similes used in Tohir Malik's stories.*

Key words: *simile, standard, basis, linguocultural unit, free simile, measure.*

Kirish

Insoniyat olamni anglar ekan, o'xshatish-qiyoslashning o'rni juda kattadir. O'xshatish esa kuzatish, taqqoslash kabi jarayonlar bilan uzviy bog'liq. Ammo duch kelgan narsa va hodisalardan o'xshatish izlash ham o'rinsiz. O'xshatish shunday hodisaki, biror predmet, voqea, shaxs yoki holat kuzatilganida boshqa bir narsani beixtiyor yodga soladi. Ana shu holat o'xshatishning tug'ilishiga sabab bo'ladi. Nizomiddin Mahmudovning "Til tilsimi tadqiqi" ilmiy risolasida o'xshatishlarga: "...qiyoslash bilangina narsa-xususiyat vositasida bilinmagan narsa-xususiyatni osonlik bilan bilish imkoniyatini beradi" [9, 160], – deya ta'rif beriladi. Masalan, she'riyatda labni g'unchaga, qoshni kamonga, yuzni oyga qiyoslash keng tarqalgan, chunki oy, quyosh, kamon kabi predmetlarni tanish uchun alohida bilim talab qilinmaydi. Shuning uchun ham ilk o'xshatish namunalari shu kabilar bo'lgan bo'lsa, ajab emas, hatto shu darajada ko'p qo'llanganidan paremiologik birliklar singari turg'unlashish darajasiga yetgan. O'ylab qaralsa, bu o'xshatishlar ham o'z-o'zidan paydo bo'lgan emas. Labni ta'riflashdan avval g'unchani, qoshni ta'riflashdan avval kamonni, yuzni ta'riflashdan avval oyni yaxshiroq tanish ilmiga ega bo'lingan. Bugungi kun adabiyotida ham o'xshatishlar rang-barang tarzda qo'llanmoqdaki, bu hol o'quvchini tasavvurini oshirib, zavqlantiradi, o'z o'rnida yozuvchi yoki shoirning mahoratini belgilaydi.

Adabiyotlar tahlili

O'xshatishlar muayyan holatni, yoki predmetni ifodalash bilan birga istalgan, hatto o'lchov, miqdor kabi mavzularni ham uchratish mumkin. Matnda miqdor va o'lchovni ifodalash aniqlik sari intilishni ifodalaydi. Maqol, matal, ertak, topishmoq kabi xalq og'zaki ijodi namunalari, she'riyat, nasrni esga olaylik. Ular tarkibida kelgan o'lchov va hisobni anglatuvchi birliklar talaygina.

“Matn yaratishda, ayniqsa, badiiy matnlarni shakllantirish jarayonida miqdor anglatuvchi soʻzlarning oʻrni beqiyosdir. Obrazlar xarakterini ochish, nutqning taʼsirchanligini oshirish maqsadida adiblar oʻz asarlarida miqdoriy soʻzlardan foydalanishadi. Badiiy sanʼatlarning tarkibida talay miqdoriy soʻzlarni uchratish mumkin” [8, 116]. Ana shunday badiiy sanʼat turlari sirasiga oʻxshatishlarni ham kiritish mumkin. Ular tarkibida biror predmet oʻlchovi asosidagi oʻxshatishlarni ham uchraydi.

Oʻxshatish tafakkurning yangilik qidirish va kashf etish borasidagi eng muhim vositalardan biri hisoblanadi. Oʻxshatishning bu xususiyatini barcha fanlar uchun zarur kategoriyaga aylantiradi. Oʻxshatishni “konkretlashtirish funksiyasi” falsafa, logika, tilshunoslik, badiiy adabiyotda atroflicha izohlanib kelinadi [17, 92].

Ana shunday mahoratli adiblardan biri Tohir Malikning qissalarini oʻqish davomida oʻlchov birliklari semali bir qator rang-barang oʻxshatishlarga duch keldik. Yozuvchi bu kabi oʻxshatishlarni shunday mahorat bilan qoʻllaganki, arzimas va eng kichik boʻlib koʻringan detallarni ham oʻxshatishlar yordamida oʻquvchiga aniq va konkret tarzda yetkazib berishga harakat qilgan. Adibning har bir qoʻllagan oʻxshatishlari oʻquvchini oʻylashga, tasavvur qilishga undaydi. Bu esa, oʻz oʻrnida, asarning oʻqishliligini va oʻqiguvchilarining salmogʻini ham oshishiga xizmat qiladi. Adib qalamiga mansub boʻlgan ”Shaytanat”, “Devona”, “Ov”, “Ozod inson haqida qoʻshiq”, “Falak”, “Eng kichik jinoyat” kabi bir qator qissalarida bunday oʻxshatishlarni koʻplab uchratish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi

Mavzuni yoritishda tavsiflash, qiyoslash va lingvokulturologik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Yozuvchi har gal oʻxshatish qoʻllashda yangilik yaratishga intiladi. Oʻxshatish olamida kitobxon oʻylamagan kashfiyotlarni taqdim etadi. Ayniqsa, adib tomonidan qoʻllangan oʻlchov birliklari semali oʻxshatishlar tasvirlangan manzarani aniq koʻra olish imkoniyatini yaratadi.

Quyida ana shunday go'zal o'xshatishlar tahliliga to'xtalamiz: *Ishoq ota ayvonda, eskirgan namat ustiga to'shalgan ko'rpada shiftga tikilgancha yotardi. Ko'zlari botiq, yonoqlari turtib chiqqan. Mushtdek buqog'i iyagiga tiralib turibdi* [3, 102]. Ushbu gapda *mushtdek* o'xshatishi keltirilgan bo'lib, bu leksemaga "O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati"da "Kichkina, ixcham, mayda. Ko'proq shaklan yumaloq yoki yumaloqqa moyil narsalar, shuningdek, yosh bola, katta odamning uncha yirik bo'lmagan yoki ozib, kichraygan jussasi tarzida ta'rif berilgan [7, 140]. Ammo "Devona" qissasidan olingan misolda *musht* etaloni *katta* semasini ifodalamoqda. Biz izohli lug'atda bu etalonning faqat kichkina va yumaloq shaklini ifodalashigina berilgan demoqchi emasmiz, shunchaki, yozuvchi etalon qo'llashda yangilik yaratgan. O'rni kelganda aytish kerakki, lug'atda *musht* etaloni, asosan, *mushtdan* katta bo'lgan predmetlarni kichkina yoki kichrayib qolganini ifodalash uchun qo'llanishi aytilgan, adib qo'llagan o'rinda esa buqoqning ancha katta ekanligiga ishora qilinmoqda. *Mushtdek buqoq* birikmasi bir qarashda yumaloq semasini anglatayotganga o'xshaydi, biroq gapning umumiy mazmunidan uning kattaligini *iyagiga tiralib turganidan* ham bilish mumkin.

Shunga o'xshash bir qator o'xshatishlar ko'rildiki, har birining ifoda etayotgan mazmuni badiiylikni yanada yorqin bo'lishiga xizmat qilmoqda. Quyida tahlilga olingan yana bir misolni keltiramiz: *Bu olam odamlarini zir titratib turuvchilardan biri bo'lmish Xongirey uchun Hosilboyvachcha deganlari chivinday gap* [10, 189]. *Chivin* etaloni "O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati"da juda kichkina, lekin tirik, chidamli, odam [7, 247], ya'ni insonning chidami qay darajadaligini ochib berishga qaratilgan o'xshatishlar tarkibida kelishi haqida so'z boradi, biroq yozuvchi bu etalondan ham yangilik yaratishga harakat qilgan. Keltirilgan gapdan ko'rinib turibdiki, *chivindek* etaloni nazarga ilinmaydigan, arziyas, judayam kichkina, yechim qidirish shart bo'lmagan masalaga nisbatan qo'llangan. Yozuvchi *chivindek* etalonini tanlashda uning tashqi ko'rinishini, ya'ni kichkinaligini arziyaslik belgisi sifatida asos qilib olishi natijasida *tirik va chidamlilik* semalari yo'qolgan. O'rni kelganda shuni aytish kerakki, badiiy adabiyotda aynan shu etalon o'rnini, ko'pincha, *pashshadek* etaloni

egallaydi. Arzimagan **pashshaday gap** sizlarga filday vahimali bo'lib yetib borganga o'xshaydi [13, 202]. Ushbu gapdagi etalon ham yozuvchining qalamiga mansub, ammo yozuvchi Xongrey oldida Hosilboyvachchaning qadri pashshanikidan ham past ekanligini ifodalamoqchi bo'lgan. Yana shuni ham aytish kerakki, yozuvchi qo'llagan bunday o'xshatishlar o'zi turg'un, ammo ifodalayotgan ma'nosi yangi, ya'ni turg'un o'xshatish qolipli erkin o'xshatishlar ko'rinishida bo'ladi.

Sh.Toshxo'jayeva o'zining "Zid ma'nolilik va uning ifoda imkoniyatlari" maqolasida ba'zan zid ma'noli so'zlar ijodkorning badiiy maqsadini amalga oshirish uchun muayyan kontekstda bir-biriga qarama-qarshi qo'yilishi haqida aytib o'tadi [15, 90]. "Asli antonimik munosabatda bo'lmagan bunday so'zlarning qarama-qarshi qo'yilishida kontekst alohida rol o'ynaydi. Shuning uchun ularni shartli ravishda kontekstual antonimlar deb yuritiladi" [6, 15]. "Ta'kidlab o'tilganidek, lisoniy zid ma'nolikka qaraganda kontekstual, ya'ni nutqiy zid ma'nolilik badiiyatga xizmat qilishi nuqtayi nazaridan ko'proq qimmatga ega" [15, 90]. "Tilimizdagi ko'pgina so'zlar to'g'ri ma'nosi bilan ham, ko'chma ma'nosi bilan ham antonim bo'la olmaganlari holda, ular nutqda bir-birlari bilan mazmunan zid tushunchalarni anglatib kelishi, qarama-qarshi ma'nolarda qo'llanishi mumkin... Bunda yozuvchi va shoirlarimiz antiteza usulidan foydalanib, nutqning ifodali, ixcham va o'tkirligiga erishadilar" [19, 54-55]. Ko'rib o'tganimizdek, kontekstdagina zid ma'nolilikni hosil qilayotgan so'zlar ma'no jihatidan bayon etilayotgan fikrga o'tkirlik, ta'sirchanlik baxsh etmoqda. Bunday semaga ega bo'lgan o'xshatishlar faqatgina muayyan shaxs tomonidan qo'llanishi mumkin. "Bunday antonimiya faqat individual nutqqa xos bo'lib, bu nutqdan tashqarida mavjud emas. Shunday bo'lsa ham, so'z san'atkorlari ana shunday antonimiyani yuzaga keltirish bilan fikrning ifodaliligini va ta'sirchanligini ta'minlaydilar" [6, 15]. Men, **tuyadek gunohlarimni bo'ynimga olaturib, pashshadek ingichkasidan** voz kechish harakatida emasligimga ishonilishini iltimos qilaman [5, 26]. Bu o'xshatish o'ziga xos kontrastni ifodalagan bo'lib, **tuyadek** etaloni **pashshadek ingichka** o'xshatishiga nisbatan katta degan semani ifodalamoqda. E'tibor berilsa,

gap tarkibidagi *pashshadek ingichka* o'xshatishi qo'llangani uchun *tuyadek gunoh* o'xshatishini tushunish osonlashmoqda. Agar gapda *tuyadek gunoh* o'xshatishining o'zi qo'llanganida bu biroz tushunarsizlik hosil qilgan bo'lar edi, yoki o'xshatish asosini ham ifodalash talab etilardi. O'xshatishga qarab turib nima uchun kichkina emas, ingichka leksemasi tanlangani ajablantiradi. Adibning maqsadini aniqlashtirish uchun "O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati"ga yuzlandik. Lug'atda *ingichka* so'zi chigitrka etaloni qo'llangan o'xshatishlar uchun asos vazifasini o'tashiga guvoh bo'ldik [7, 148], demak, yozuvchi eng kichik va arzimas gunohlarni *chigirtkadek ingichka* demay, *pashshadek ingichka* o'xshatishidan foydalanish orqali pashshaning chigirtkadan kichkinaligini nazardan chetda qoldirmagan. Adibning bu kabi teran kuzatuvchanligini boshqa o'xshatishlarda ham namoyon bo'lishi o'quvchini o'ziga jalb etadi. *Rahmatulloh o'rmondagi allaqanday yovvoyi mevaning no'xatdek keladigan danagidan o'zi yasab olgan donalarni o'girib tasbeh aytadi* [4, 3]. Mana bu o'xshatishda ham yozuvchining teran kuzatuvchanligi ko'zga tashlanadi, gapda qo'llangan *no'xatdek* etalonining tanlanishiga bir e'tibor qarataylik. Ma'lumki, *danak* so'zi eshitilgan zahotiyoq inson ongida o'rik mevasining danagini eslatadi, ammo gilos, olxo'ri, shaftoli kabi bir qator mevalarda ham *danak* bo'lib, ularni aynan keltirishdan avval mevaning nomi bilan keltirilmasa, masalan, gilos danagi, shaftoli danagi kabi, yana o'rikning danagi tushunilishi mumkin. Faqatgina o'rik mevasining danagiga nisbatan mevaning nomi keltirilishi zarur bo'lmaydi. *Ana shu potirlash asnosida go'yo yuragidan danakday parcha ajralib chiqdi-yu, bo'g'ziga kelganda qadalib qoldi* [13, 332]. Mana bu misolda kelgan o'xshatish gapimiz isbotidir. Sababi etalon o'ziga qarashli aniqlovchi bilan kelmayapti. Bunda kitobxon o'ylanib o'tirmay o'rik mevasining danagidagi o'lchamni ko'z o'ngida gavdalantiradi. Biroq ana shu *danak* emasligini aniq ifodalash uchun ham *no'xatdek* etalonidan foydalanmoqda. Gapga e'tibor berilsa, o'xshatishdan avval qo'llangan yovvoyi meva birligi gapimizga isbotdir. Mevaning ham yovvoyi ekanligiga e'tibor qaratilsa, *no'xatdek* etaloni o'xshatish orqali o'quvchida aniq va konkret tasavvur uyg'otmoqda. Albatta, yovvoyi meva, uning danagi, danaging hajmi haqida

hamma ham to'liq tasavvurga ega emas-ku, bu o'xshatish orqali esa aniq tasavvurga ega bo'lingan.

Misollarni tahlilga olish jarayonida o'lchovni ifodalashga xizmat qilgan etalonlar orqali ta'riflanayotgan predmet, shaxs kabilarning me'yoriy o'lchamini emas, balki o'ta kichkina yoki o'ta katta ekanligini ochib berish uchun qo'llanganiga guvoh bo'lindi. Odatda, hajm-o'lchov aniq otlarga nisbatan qo'llaniladi, ammo Tohir Malik tomonidan qo'llangan ba'zi hajm-o'lchov etalonli o'xshatishlarda, aksincha, mavhum otga nisbatan qo'llangan o'rinlarni ham uchratish mumkin:

— *Afti-angorini nima qilasan, jig'ildonini ko'rish kerak, — dedi Kesakpolvon.*

— *Jig'ildoni **nahangnikiday** bo'ladi-da, — dedi Chuvrindi* [13, 131]. Navbatdagi misolda etalon bir qarashda aniq otga o'xshaydi, ammo yozuvchi jig'ildon orqali nafsga ishora qilmoqchi bo'lgan. “Nega aynan nahang, bo'ri emas?”, - degan savolga javob izlash jarayonida yozuvchining so'z qo'llash san'atidagi mahorati, har bir tanlangan so'zning nozik ma'no qirralarini ko'zdan qochirmaganiga guvoh bo'lindi. Etalonga olingan *nahang* so'zining “O'zbek tilining izohli lug'ati”da berilgan 1. Kit; timsoh; aynan akula, kit. 2. Ko'chma ma'noda o'ta yulg'ich, o'zlashtiruvchi [16 ,30] semalarini anglatishi e'tiborimizni tortdi. Yozuvchi ta'riflanayotgan shaxsning nafs bandasi ekanligini bo'ri, tulki, sher kabi hayvonlarga qiyoslasa, qoniqmaydiganday nahangni tanlagan. Chunki nahang yo'lida uchragan jonzodni tiriklayin yutib yuboradi. Yoki nahangning katta, bahaybat ekanligi, gavdasiga yarasha oziqlanishi majoziy ma'noda aynan poraxo'r odamga ishora qilinmoqda. “Hayvon va o'simliklar ham o'xshatish asosini tashkil etadi, bunday kod lingvomadaniyatshunoslikda biomorf kod deb yuritiladi” [7, 96]. O'zbek tili o'xshatishlari orasida biomorf kodli o'xshatishlar salmoqli o'rinni egallaydi. Hayvonlar bilan bog'liq etalonli o'xshatishlar yuzasidan so'z borar ekan, F.Musayeva o'zining “O'zbek shevalarining tadqiqi” nomli monografiyasida “O'xshatishlar uchun asos qilib olinadigan obrazlar inson hayotining an'anaviy turmush tarzi va faoliyati bilan bog'liq. Obraz yorqin bo'lishi

uchun u dolzarb, lisoniy jamoaning barcha a'zolari uchun tushunarli bo'lishi lozim. Obrazli kod vazifasini reallikning har qanday hissiy qabul qilinadigan qismi bajarishi mumkin: landshaft, osmon jismlari, tabiat xodisalari, o'simlik va hayvonlar, inson tanasi a'zolari, artefaktlar (xo'jalik buyumlari, mehnat qurollari, qurol, uy-joy), shuningdek, ular bilan sodir bo'ladigan hodisalar" [1, 94], deya fikr bildiradi.

*Agar u biroz harakatsiz tursa, qaysi noshud haykaltarosh yosh bolaga katta odamning **xumday** boshini o'rnatib qo'yibdi, deb o'ylash ham mumkin edi* [12, 7]. O'xshatish Kesakpolvon haqida bo'lib, adib *xumday* etaloni orqali ikkita semani ifodalashni maqsad qilgan, ya'ni etalon katta va ichi bo'sh semalarini o'zida jamlagan. Adib bu etalon orqali asar qahramonining tashqi ko'rinishidan xabardor qilmoqda, shu bilan birga, uning ma'naviyati haqida ham eslatib o'tmoqda. Ma'lumki, Kesakpolvon Asadbekning xizmatidagi shaxs bo'lgan, u Asadbekning maslaxatisiz biror ishga qo'l urmagan. Ayniqsa, odam o'ldirish, biror noqonuniy ishni qing'ir yo'llar bilan berkitishni yaxshi uddalardi. Demak, etalonda katta *bo'lishiga qaramay ichi bo'sh* semasi ifodalangan.

Adib asarlarida o'xshatishlar yordamida o'lchovni ifodalashga ko'plab murojaat qilingan. Bunday o'xshatishlar, albatta, o'lchanayotgan predmetning aniq ko'rinishini tasvirlab bergan. ***Chaqaloqning kaftiday*** keladigan uchburchak *tunukacha olovda qog'ozday bujmayib qolgan edi* [12, 289]. *Xushbichim qiz nozli yurish bilan kirib keldi-da, **chaqaloqning mushtiday kichkina**, zarhal yuritilgan piyolalarga qahva quyib uzatib, shirin jilmayish hadya etgach, yana o'sha nozli yurish bilan chiqib ketdi* [10, 340]. Bu ikki o'xshatishda ham yozuvchi juda kichkina bo'lgan hajmni kitobxon ko'z o'ngida gavdalantirishni maqsad qilgan. *Musht, kaft* etalonli turg'un o'xshatishlar avvaldan mavjud bo'lib, ular anglatgan o'lcham adib nazdida biroz kattadek tuyilgan. Avval ham aytganimizdek, etalonga nisbatan qo'llangan va tanlangan sifatlovchi aniqllovchi hamda qaratqichli aniqllovchi etalon semasiga o'z ta'sirini ko'rsatib o'xshatishga yuklangan mazmunni asosiy qismini ochib beradi. Bu o'xshatishlar ham o'ziga qarashli

aniqlovchisiz qo'llansa, adib ko'zlagan maqsadiga erishilmas edi, ya'ni kitobxon ayni o'xshatish anglatgan o'lchamni anglayolmasdi.

*Men ham bekorchilikda yoti-ib, boshqacharoq formula kashf etdim, — Elchin shunday deb ko'krak cho'ntagidan **shapaloqday** gazeta parchasini olib uzatdi [11, 188].*

*To'pponchasi yonida bo'lmaganida komissarni bu **xirsday** yigit bo'g'ib o'ldirishi mumkin edi [4, 26]. Xirs forscha so'z bo'lib ayiq degan ma'noni anglatadi. Bir qarashda ayiq o'lchov semasini ifodalamayotganga o'xshaydi, ammo yigitning gavdasi baquvvat, qo'pol qay darajada katta ekanligiga ham ishora bor.*

*Agar kishi atrofini yetti qavat temir qo'rg'on bilan o'rasa-da, ajal o'ziga yo'l topadi. **Ignaday teshikdan** kirib bo'lsa ham vazifasini belgilangan kun, soat, daqiqa, soniya, nafasda bajaradi [14, 627]. Mazkur o'xshatish etaloni vositasida adib hajm orqali imkoniyat ma'nosini ifodalashni maqsad qilgan. Qo'llangan o'xshatish kontekstdan tashqarida juda kichik, arzimas kabi semalarni anglatadigan turg'un o'xshatish hisoblanadi [7, 91]. Ammo mazkur gapda imkoniyat ma'nosini ochib berish uchun qo'llangan.*

*Adib o'lchov birliklari semali o'xshatishlarni qo'llashda shunday etalonlarni kashf etadiki, kitobxon o'z tasavvurini uyg'otadi. Ayniqsa, yosh bolaning tana a'zolarini o'lchov semali etalonlar sifatida qo'llashi, va yana bolaning aniq yoshini keltirishi kitobxonni xayratga soladi. Bu holat esa o'quvchini aniq o'lchamni tasavvur qilishiga yo'l ochib beradi. *Tilla popukli pogon, ko'kragidagi har biri o'n yashar bolaning shapalog'iday keladigan nishonlar esa uni pastga bosib turganday edi* [2, 35].*

Uylar oldiga ikki qator mevali daraxt ekilgan, hovli o'rtasi yaydoq, to'rt yeriga yetti yashar bolaning belidek keldigan yo'g'onlikda bo'yi bir yarim qulochlixoda ko'milgan edi [12, 28].

Asadulla ayvonga chiqdi-yu, shiftda osilib turgan ilonni ko'rdi. Yo'g'onligi uch yashar bolaning bilagidek keladigan ilon tillarini chiqarib qaldirg'och iniga bosh suqmoqchi bo'lar, ikki qaldirg'och esa unga hamla qilgancha tinmay chirqillardidi [2, 2].

Ko‘rinadiki, keltirilgan o‘lchov semali o‘xshatishlar kutilmaganligi, yangiligi, noodatiy ekanligi bilan o‘zgachalik kasb etmoqda. Adibning kuzatuvchanligi u qo‘llagan o‘xshatishlarda yorqin aks etibgina qolmay, kitobxonni ham o‘xshatish tarkibida kelgan o‘lchovni tasavvur qilishga undaydi. Ayniqsa, bunday o‘xshatishlar tarkibida kelayotgan qaratqich aniqllovchi va unga ergashib kelayotgan sifatlovchi aniqllovchining xizmati katta. Adib tomonidan qo‘llangan bunday birikmali holatdagi o‘xshatishlarda etalonni sifatlovchi va qaratqichli aniqllovchisiz qo‘llashning iloji yo‘q. Chunki etalon aniqllovchilarsiz qo‘llansa, uning ifodalayotgan o‘lchov semasi gumonga aylanib qoladi. Adib shuning uchun ham *kaft*, *bel*, *bilak* kabi etalon vazifasini bajarayotgan birliklarga nisbatan aniq tasavvur uyg‘otish maqsadida bolaning yoshini ko‘rsatishni ma’qul ko‘radi.

Xulosalar

Badiiy matnlarda o‘lchov semali o‘xshatishlar keng tarqalgan. Umuman, Tohir Malik asarlarida uchraydigan bu xildagi o‘xshatishlar o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ular orqali kitobxonga avvaldan tanish bo‘lgan muayyan predmetning hajmidan etalon sifatida foydalaniladi. O‘lchov barcha sohalar uchun juda zaruriy vositadir. Shuning uchun u tilshunoslikni ham chetlab o‘tmagan. Ayniqsa, badiiy asarlarda kitobxonning aniq tasavvuri uchun zarur hisoblanadi. Adib o‘z asarlarida o‘lchov semali o‘xshatishlardan o‘rinli va ustalik bilan foydalangan. Bu hol bayon etilayotgan fikrning ixcham va obrazli bo‘lishini ta’minlagan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Musayeva F. O‘zbek shevalarining lingvomadaniy tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2019. – B. 94.
2. Tohir Malik. Savohil. – Toshkent, O‘zbekiston milliy ensklopediyasi. 2018. – B. 35.
3. www.ziyouz.com. Тоҳир Малик. Девона (қисса). – 143 б.
4. www.ziyouz.com. Тоҳир Малик. Ов (қисса). – 31 б.

5. www.ziyouz.com. Тоҳир Малик. Озод инсон ҳақида қўшиқ (қисса). – 85 б.
6. Абдураҳмонов Х., Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент, 1981. – Б. 15.
7. Маҳмудов Н., Худойберганаева Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013. – 320 б.
8. Мамажонова М. Матнда миқдор ва ўлчов билдирувчи бирликлар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2020. № 3. 116-бет
9. Маҳмудов Н. Ўхшатишлар ва миллий нигоҳ // Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент: Mumtoz soʻz, 2017. – Б. 160.
10. Тоҳир Малик. Шайтанат (қисса). 1-китоб. – Тошкент, Шарқ. 2013. – 383 б.
11. Тоҳир Малик. Шайтанат (қисса). 2-китоб. – Тошкент, Шарқ. 2013.
12. Тоҳир Малик. Шайтанат (қисса). 3-китоб. – Тошкент, Шарқ. 2013.
13. Тоҳир Малик. Шайтанат (қисса). 4-китоб. – Тошкент, Шарқ. 2013. – 495 б.
14. Тоҳир Малик. Шайтанат (қисса). 5-китоб. – Тошкент, Шарқ. 2013.
15. Тошхўжаева Ш. Зид маънолилиқ ва унинг ифода имкониятлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2014. № 3. – Б 90.
16. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2007. – 3-жилд. – Б. 30.
17. Философский словарь. – М.: Полиздат, 1991. – 92 стр.
18. Шукуров Р. Ўзбек тилида антонимлар. – Тошкент, 1977. – Б. 54-55.